

**ILG‘OR ISH TAJRIBALARINI OMMALASHTIRISH – MEHNATNI
RAG‘BATLANTIRISH VA TAJRIBALARNI O‘RTOQLASHISHDIR**

M.M. Boboyev

Buxoro davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi (PhD)

E.S. Nazarov

Buxoro davlat universiteti, texnika fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: Maqolada bugungi kundagi umumiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quv jarayoniga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish tizim xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Metodik ish, metodik tavsiya, metodik qo‘llanma, ilg‘or pedagogik tajriba.

**ПРОДВИЖЕНИЕ ПЕРЕДОВЫХ МЕТОДОВ РАБОТЫ – ЭТО
ПООЩРЕНИЕ РАБОТЫ И ОБМЕН ОПЫТОМ**

М.М. Бобоев

Бухарский государственный университет, соискатель (PhD)

Э.С. Назаров

Бухарский государственный университет, кандидат технических наук, доцент

Аннотация: В статье анализируются вопросы эффективной организации образовательного процесса в современной системе общего среднего образования и передовой опыт, направленный на повышение качества образования в образовательном процессе, внедрение современных педагогических технологий, налаживание обмена опытом между сотрудниками.

Ключевые слова: Методическая работа, методические рекомендации, методическое пособие, передовой педагогический опыт

**PROMOTING BEST PRACTICES IS ENCOURAGING WORK AND
SHARING EXPERIENCE**

M.M. Boboyev

Bukhara state university, applicant.

E.S. Nazarov

Bukhara state university, candidate of technical sciences, associate professor

Annotation: The article analyzes the issues of effective organization of the educational process in the modern system of general secondary education and best practices aimed at improving the quality of education in the educational process, introducing modern pedagogical technologies, and establishing the exchange of experience between employees.

Keywords: Methodical work, methodical recommendation, methodical manual, advanced pedagogical experience.

Kirish. Mamlakatimizda ta’lim sifatini yanada oshirish, jahon standartlariga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda o‘quvchilar ongi va qalbiga XXI asr ko‘nikmalarini singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu yuksak maqsadni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonida berilgan vazifalar yuzasidan, O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 7 -fevraldagi “O‘qituvchilarning ilg‘or tajribasi va faoliyati davomida qo‘llab kelayotgan zamonaviy metodikalarini ommalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risidagi 32-sonli buyrug‘i qabul qilindi.

Umumta’lim maktablarda ommalashtirishning asosiy maqsadi:

– Umumiy o‘rta ta’lim tizimiga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va o‘quv jarayoniga ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yishdan iborat;

– Ommalashtirish uchun tavsiya etilgan ilg‘or ish tajribalar (keyingi o‘rinlarda – metodik ish) metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishda bo‘lishi lozim;

– Metodik qo‘llanma yoki metodik tavsiya ko‘rinishida bo‘lmagan hamda o‘tgan yillar davomida ommalashtirilgan metodik ishlar o‘rganilmaydi.

Metodik ishlar quyidagi bosqichlarda ommalashtiriladi:

– Maktab miqyosida;

– Tuman (shahar) miqyosida;

– Viloyat miqyosida;

– Respublika miqyosida.


Umumta’lim muassasasining fan o‘qituvchisi (keyingi o‘rinlarda – talabgor) tomonidan ilg‘or tajribalar asosida ishlab chiqilgan metodik ish yo‘nalishlar bo‘yicha maktabning Metod birlashmasi tomonidan muhokama qilinadi, hamda ilg‘or ish tajribaga ega deb topilgan taqdirda maktab miqyosida ommalashtirish uchun maktabning Pedagogik kengashiga tavsiya etiladi.

Metodbirlashma tavsiyasi asosida Pedagogik kengashda talabgorning metodik ishi mazkur buyruq bilan tasdiqlangan metodik ishga qo‘yilgan talablar hamda baholash mezoniga muvofiq ishlab chiqilganligi o‘rganib chiqiladi hamda maktab miqyosida ommalashtirish yoki ommalashtirmaslik bo‘yicha Pedagogik kengash qaror qabul qiladi.

Agar talabgorning metodik ishiga ijobiy xulosa berilib, ommalashtirishga loyiq deb hisoblansa, Pedagogik kengash qarori bilan maktab miqyosida ommalashtiriladi va *ommalashtirish.uz* platformasiga joylashtirilib keyingi bosqichlarga yuboriladi.

Buxoro viloyatida *Ommalashtirish.uz* platformasiga jami 1200 ta metodik ishlar yuklangan.

Talabgorlarning metodik ishlari tumanlar kesimida tahlil qiladigan bo‘lsak:



Eng ko‘p metodik ish Shofirkon tumani o‘qituvchilari tomonidan yuklanganligini, eng kam metodik ish Qorovulbozor tumani o‘qituvchilari tomonidan yuklanganligini ko‘rinib turibdi.

Ommalashtirish.uz platformasiga yuklangan metodik ishlarni fanlar kesimida tahlil qilsak, eng ko‘p metodik ishlar boshlang‘ich ta‘lim fani o‘qituvchilari tomonidan, eng kam metodik ishlar iqtisodiy bilim asoslari fani o‘qituvchilari tomonidan yuklanganligini guvohi bo‘ldik.



Ommalashtirish.uz platformasi orqali yuborilgan metodik ish Metodik xizmat ko'rsatish bo'limining tegishli fanlar bo'yicha O'quv metodik kengashi a'zolari tomonidan o'rganib chiqiladi.

Talabgorning metodik ishi maksimal 80 ball bilan baholanadi. Talabgor tomonidan tayyorlangan metodik ish mazkur buyruq bilan tasdiqlangan metodik ishga qo'yilgan talablar hamda baholash mezoniga muvofiq baholanadi.

Talabgorning metodik ishi 50-65 ball bilan baholansa, tuman (shahar) miqyosida, 66-80 ball bilan baholansa viloyat miqyosida ommalashtirilgan deb hisoblanadi va sertifikat olish uchun *ommalashtirish.uz* platformasi orqali Respublika ta'lim markaziga yuboriladi.

Talabgorning metodik ishi 75-80 ball bilan baholangan metodik ish Respublika miqyosida ommalashtirish uchun tavsiya etiladi.

Yangi O'zbekistonda bo'layotgan ijobiy ma'nodagi o'zgarishlar, o'qituvchilarga yaratilayotgan imkoniyatlar, har bir o'qituvchini quvontiradi va samarali mehnat qilishlari uchun keng yo'l ochib beradi. Ayniqsa, umumiy o'rta ta'lim

tizimiga o‘quv jarayonini samarali tashkil etish va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or ish tajribalar, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda maktabgacha va maktab ta’limi tizimi xodimlari o‘rtasida o‘zaro tajriba almashish ishlarini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq ishlarni soddalashtirilgani, inson omilini kamaytirib berilgani quvonarli holat. Endi o‘z ishini ommalashtirmoqchi bo‘lgan o‘qituvchi ortiqcha ovoragarchiliksiz, bemalol o‘z ish tajribasini ish joyida ommalashtirishi, ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or ish uslubini boshqalarga amaliyotda foydalanish uchun tavsiya etish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Yurtimizda o‘qituvchilar uchun yaratilgan imkoniyatlardan foydalangan holda fizika fani o‘qituvchilari uchun 11-sinf fizika “O‘quvchilarda XXI asr ko‘nikmalarini shakllantirish” mavzusida metodik qo‘llanma tayyorlanib *ommalashtirish.uz* platformasiga yuklandi.



Mazkur metodik qo‘llanmani Buxoro viloyati Jondor tumani 46-maktabning 11-sinflarida aprobatsiyadan o‘tkazildi. Olib borilgan monitoringga ko‘ra, fan o‘qituvchilari mazkur qo‘llanmadan o‘z ish faoliyati davomida o‘rinli foydalansalar quyidagi natijalarga erishadilar:

*Birinchi*dan, fizika fani o‘qituvchisi yangi mavzuni o‘tishda; *ikkinchi*dan, yangi mavzuni mustahkamlashda; *uchinchi*dan, o‘tilgan mavzunu mustahkamlashda; *to‘rtinchi*dan, fizika fani bo‘yicha o‘quvchilarni fan olimpiadalarga tayyorlashda; *beshinchi*dan, mazkur qo‘llanmani QR ham mavjud bo‘lib o‘quvchilar istagan vaqtlarida foydalanishi mumkin.

Mazkur metodik qo‘llanmaning afzalligi shundaki, 11-sinf fizika fanidan har bir mavzu bo‘yicha 8-12 ta savollar (ya‘ni o‘quvchilarning mavzuni bilishi) masalalar yechishi (qo‘llash) va amaliy topshiriqlar (mulohaza yuritish) berilgan.

Xulosa qilib aytganda, joriy etilgan ommalashtirish tizimidagi tub o‘zgarishlar natijasida, o‘qituvchi o‘z mehnatiga berilgan bahoni va uning qadr-qimmatini anglab yetadi, o‘z metodik tavsiya yoki qo‘llanmasini boshqalar bilan o‘rtoqlashadi, shuningdek yosh avlodning ta‘lim va tarbiyasiga o‘z hissasini qo‘shadi degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmoni.

2. 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e‘tibor va sifatli ta‘lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-son Farmoni.

3. K. Suyarov, J. Usarov, Z. Sangirova, Y. Ravshanov, N. Buranova. 7-sinf fizika darslik. Toshkent: Respublika ta‘lim markazi, 2022. – 192 b.

4. Z. Tuksanova, E. Nazarov. Effective use of innovative technologies in the education system. Научный журнал «Интернаука» 2020. № 16 (145) Часть 3. С. 30–32.

5. Э.С. Назаров, Ш.Э. Назаров. Особенности интегрирования информационных технологий в преподавании предмета физики. Вестник науки и образования. № 18 (96). Часть 2. 2020. С.41-43.

6. E.S. Nazarov, M.S. Khusenova. Formation of multifaceted relationships of pupils in secondary education. GOSPODARKA I INNOWACJE. Volume: 22 | 2022. pp. 226-228.

7. E.S. Nazarov, M.B. Teshayeva. Zamonaviy fizika ta‘limi muammolari va uni takomillashtirish istiqbollari. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | 2022. pp. 562-565.

9. Э.С. Назаров, М.С. Хусенова. Формирования многогранных отношений учеников среднеспециального образования. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3 | Issue 3 | 2022. pp. 586-590.

10. E.S. Nazarov, M.M. Boboyev. Umumta‘lim maktablarning 7-sinf o‘quvchilariga fizika fanidan xxi asr ko‘nikmalarini rivojlantirish. PEDAGOGS international research journal. Volume-57, Issue-2, May -2024.

11. E.S. Nazarov, M.B. Teshayeva. [Zproblems of teaching methods in amonavi class](#). Cientific progress journal. Volume 4 | Issue 4 | 2023. pp. 93-96.